
“SOBIRTEPA” MFYDA “OBOD QISHLOQ” DASTURI ASOSIDA MUAMMOLAR HAL ETILADI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Beshariq tumanidagi o'rganishlari davomida “Sobirtepa” MFYdagi mahallalarni to'liq aylanib chiqdi. Fuqarolar bilan suhbatlashib, ularni qiynayotgan masalalar bo'yicha murojaatlarni eshitdi.

Hududda “Obod qishloq” dasturi asosida yo'llarni ta'mirlash, asfaltlash, suv va obodonlashtirish bilan bog'liq barcha masalalar hal etilishi, oilaviy poliklinika ta'mirlanib, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanishi ma'lum qilindi.

Viloyat hokimi tashrifidan hursand bo'lgan mahalla ahli, nuroniylar Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlardan mamnun ekanliklarini, o'zgarishlar chekka-chekka qishloqlarda ham aks etayotganini qayta-qayta ta'kidlashdi.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-01-23 16:32:06